

## BOLALAR TARBIYASINING SHAKILLANISHI HAMDA TARBIYA USULLARI

*Muhammadaliyeva Nodirabegim Mirzarahmon qizi*  
*UNIVERSITY OF SCIENCE AND TECHNOLOGIES*

*"Boshlang'ich ta'lif" kunduzgi*  
*101-guruhi talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada bolalar tarbiyasiga oid turli ma'lumotlar, bolalar shaxsiyatini rivojlantirish, ularning tarbiyaviy asoslarini kuchli shakilda yaratish, bolalar tarbiyasining usullari hamda ularni tarbiyalash metodlari tasnifi haqida tushuncha berilgan.

**Kalit so'zlar:** Bolalar, tarbiya, usul, metod, ota-onalar birligi, his, ruhiyat, rivojlanish, avtoritar, ruxsat, beriluvchi, vakolatli, irsiy, muhit, idrok, anglanuvchi.

Keling so'z boshida avvalo tarbiya nima ekanligi, u bolada qanday shakillanishi haqida so'z yuritaylik. Tarbiya aslida avloddan avlodga o'tib keluvchi irsiyatning bir tuzumi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki har bir inson o'zi qanday ruhiy muhitda rivojlangan bo'lsa huddi shunday muhitni yaratuvchisi bo'ladi. Mana, nima uchun har bir ruhiyatga oid mu'ammo irsiyatga taqaladi. Bir narsani unutmasligim kerak o'tmish hech qachon ortda qolmaydi, sizning ichingizda doim siz yashab o'tgan bolalik qoladi. Siz o'zingiz qanday tarbiyalangan bo'lsangiz shunday tarbiyalovchi bo'lasiz. Bejizga o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun: Yo hayot- yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir" deb aytmaganlar. Dunyoga keltirilishi bilan bola bo'lib qolmaydi inson, u toki dunyoga kelguniga qadar tarbiya olmasa.

Tarbiya- pedagogika, ya'ni bola tarbiyasining fani hisoblanadi. Tarbiya bu- yo'l, ezgulikka yetaklovchi yo'ldir. Inson kamolotga erishmoqchi bo'lsa, albatta, tarbiya bosqichidan o'tmog'I darkor. Insonni inson qiluvchi ham aslini olganda tarbiyadir.

Hozirgi kunda tarbiya masalasiga juda qamrovli nigoh tashlash dolzarb masala bo'lib qolgan. Aslini olganda tarbiya juda hilma-xil tushunchadir. Har kim har xil tarbiya topada va tarbiyalaydi. atrofingizga bir nazar solib ko'ring, bugun sizning nigohingiz tushib turgan shu inson bir rangdir go'yo. Har bir shaxsning o'z tarbiyasining rangi bor. Faqat unga chuqurroq qaraganingizdagina ushbu ranglarni ko'ra olasiz.

Xo'sh nima deb o'ylaysiz, siz qanday shaxsiz va qanday shaxs tarbiyalamoqdasiz? Bolalarga nigoh tashlar ekansiz, ulardag'i samimiylilik sizni quvontirishu mubolag'a emas. Ammo hozirgi kunga kelib ushbu samimiylilik ham

yashirinib borayotgandek go'yo. Bolalar tarbiyasiga jiddiy qarash yo'qolgandek tuyiladi. Ota-onalar ish, tashvishlar bilan bo'lib, bolalari ruhiyatga e'tibor ham bermay qo'yishgan. Albatta, bu borada biz barcha deyolmaymiz, ammo, jamiyatimizdagi bu kabi hollar yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bola tarbiyasi o'ta murakkab masaladir. Bola parvarishi, tarbiyasi uchun sakkiz xil bosqich bordir, bola dunyoga kelganda esa mana shu bosqichlarning beshttasi o'tib bo'lgan bo'ladi. Bolani u ulg'ayotgan muhit shakillantiradi. Naqishbandiy tariqati ustozlaridan biri Umar Faruq Saydo al-Jazariy aytadilar:"Farzand, ayni paytda imtihondir. Unga yaxshi, risoladagidek tarbiya berdingmi, yaxshi-yomonni tanitdingmi, ilm-ma'rifat o'rgatdingmi? Agar, bularni qilmagan bo'lsang, sen ham gunohkor sanalasan". Asosan, ota-onalar o'z harakatlari bilan bolaga ta'sir o'tkazishadi. Ha, biz bolalarimizga nasicatlar bilan emas, balki xatti-harakatlarimiz bilan ko'proq ta'sir o'tkazamiz. O'g'il-qizlarimizga bolaligidayoq vijdon, rahm-shavqat, muruvvat kabi tuyg'ularni shakillantirishimiz lozim. Yo'qsa, keyin kech bo'ladi. Ushbu hislatlar insoniylikning negizi emasmi? Bugun atrofimizdagi ko'p insonlar o'zlarining qarashlari bo'yicha farzand tarbiyalashmoqda. Keling, tarbiyaning turlariga nigoh tashlaylik va ushbu qarashlar qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ekani haqida hulosaga kelamiz. Tarbiyaning uch xil turi mavjud. Bular: avtoritar, ruxsat beruvchi va vakolatli tarbiyadir. Bular haqida ko'proq ma'lumot beradigan bo'lsak:

**Avtoritar tarbiya:** Ushbu tarbiya turida asosiy ro'lni ota-onalar egallashadi. Chunki ota-onalar bolaga kuchli ta'sir o'tkazadi va hamma qarorni bola uchun o'zlar qabul qilishadi. Avtoritar ota-onalar bolalarni tabiatan nodon va oqilona fikrlashga qodir emas deb bilishadi. Ular bolalarning hech qanday savol bermasdan ergashishlarini kutishadi. Avtoritar ota-onalar katta ma'sulyatni his qilishadi. Farzandlar ota-onalarning xatti-harakatini so'roq qilganda, ota-onalar g'azablanib: "Qanday qilib menga bo'ysunmaslikka jur'at etasan? Men siz uchun juda ko'p ish qildim!" deya tanbih berishadi. Ular bolaning hissiy farovonligini tarbiyalash uchun o'zlarini ma'sulyatli deb bilishmaydi, aksincha, bola ularga ko'r-ko'rona bo'ysunishi kerak deb hisoblashadi. Bunday ota-onalar asosan bo'ysinuvchan, o'z-o'zini hurmat qilmaydigan, bir qarorga o'zi kela olmaydigan, shaxsiy fikr va erkinlikka ega bo'limgan bolalarni shakillantirishadi. Ularning bu yo'li qisman to'g'ri bo'lishi mumkin, ammo, bola ham bir shaxs uni ham erkinliklari bo'lishi kerak va u ham hurmat qilinishi kerakligini unutmasalar yaxshi bo'lardi.

**Ruxsat beruvchi tarbuya:** Ushbu tarbiya usulida ota-onalar noan'anaviy tarbiya uslubiga rioya qilishadi. Ularda yumshoq va erkin ruh mavjud. Ruxsat beruvchi ota-onalar o'z farzandlariga qoidalarni o'rnatishni xohlamaydilar va ular o'z farzandlari bilan qarama-qarshilikdan qochish uchun ko'p harakat qilishadi. Bu ota-onalar bolalar bilan chegara o'rnatishni qiyin deb bilishadi. Bolalarning baxti- bu ota-onalik jarayonida asosiy qarorlaridir, chunki ular bolaning talablarini qondirishga intiladi.

Ruxsat beruvchi ota-onalar “yomon odam” bo’lishni hohlasmaydilar yoki o’z farzandlari ulardan nafratlanayotganini his qiladilar, shuning uchun bu ota-onalar bolalar barcha qarorlarni qabul qilishlarini va o’z qoidalarini o’rnatishlarini afzal ko’rishadi. Ruxsat beruvchi ota-onalar o’z farzandlarini yaxshi ko’radilar va bolalar tomonidan sevilishlarini kutishadi, chunki ular bolalarga yaxshi munosabatda bo’lishadi. Ba’zi hollardagina bunday ota-onalardan noqobil farzandal paydo bo’lishi mumkin, ammo, bu statistikaning eng kam qismini tashlik etadi. Chunki bu turdagi ota-onalar, asosan, qobil, yumshoq felli, shirin so’z va mehribon farzandlar tarbiya qilishadi.

Vakolatli tarbiya: Bu pozitiv intizom uslubi. Ota-Ona tarbiyasining bu uslubi demokratik bo’lib, ota-onsa ham, bola ham ovozga ega. Obro’li ota-onalar muammoni hal qilishda va katta qarorlar qabul qilishda o’z farzandlarining fikr va mulohazalarini eshitishga intiladilar, shu bilan birga ota-onalik hokimyatini saqlab qolishadi. Agar bola ota-onaning umidlarini qondirmasa, ota-onalar tarbiyaviy munosabatda bo’lishadi va muammoni bola bilan birgalikda hal qilishga intilishadi. Vakolatli ota-onalar xatolar o’rganish uchun ajoyib imkoniyat ekanligiga ishonishadi. Ular o’z farzandlariga o’z xatti-harakatlari uchun o’z-o’zini tarbiyalash va shaxsiy javobgarlikni rivojlantirishga yordam beradi. Ular ota-onsa va bola o’rtasidagi hurmat o’zaro ekanligiga ishonishadi va ota-onalar bolalar uchun ijobiy o’rnak bo’lishadi. Bolalar o’zlarini “jamo”ga tegishli deb bilishadi va hamkorlik qilishga hamda hissa qo’shishga intilishadi. Ota-onsa tarbiyasining nufuzli uslubi boshqa uslublarga qaraganda ota-onalardan ko’proq mehnat talab qiladi. Bu uzoq muddatli maqsadlarni ko’zlagan holda ota-onsa tarbiyasiga qasddan yondashishdir. Bu turdagи ota-onalar hamkorlik bilan ishlovchi, lider, yetakchi, o’z-o’zini hamda boshqalarni hurmat qiluvchi, ma’naviy saviyasi hamda madaniyati yuksak bolalarni tarbiya qilishadi.

Ho’sh bularning qay biri to’g’ri deb o’ylaysiz? O’zingiz uchun tog’ri hulosaga kela olasiz degan umiddaman. Endi bolalar tarbiyasidagi yomon holatlarning nima sababdan kelib chiqishi haqida so’z yuritsak:

1. Bolalardagi tortinchoqlik kabi fazilatlarning kelib chiqishining asosiy sababi, ular ota-onsa tomonidan kam quchoqlnishidir. bu oddiy hol kabi ko’ringani bilan boladagi rivojlanish bosqichidagi nosozlik kabidir.
2. Bolalarda o’ziga bo’lgan ishonchsiz hissi asosan ota-onalar tomonidan bolaga ham shijoat berilganligida yoki ota-onsa tomonidan u ruhlantirilmaganligidandir.
3. Bolalarda kuzatiladigan tajavuz yoki jahilning tez chiqishi kabi holatning sababi esa, ota-onalar tomonidan bolaga qilingan qaysarlikdir. Masalan, bola o’zi uchun nimanidir talab qilgan paytda unga ota-onsa tomonidan qilinadigan sababsiz qarshilikdir.

4. Bolalarda kuzatiladigan yana bir yomon hislatlardan biri bu- ularni boshqalarni hurmat qilmasligidir. Bu esa, ota-onalarning bolalarga nisbatan baland tovushda murojat qilishi va baqirishlaridir.

5. Bolalardagi odamovilik ya’ni boshqalardan o’zini olib qochishi, buning sababi deb ota-onan tomonidan bolaga beriladigan mehrning kamligini aytish mumkin. Bolalar ko’proq erkalanishga muhtoj bo’ladilar.

6. Ko’pchilik bolalarda kuzatiladigan salbiy hollardan yana bir bu-baxillikdir. Bu fazilatning paydo bo’lishining asosiy sababi esa ota-onalar bola bilan sheriklik ishini bee’tibor qoldirganida vujudga keladi.

Bu kabi illatlarni bolalarda rivojlanishiga chek qo’yish kerak. Ularning sof va beg’ubor bolaliklariga to’siq qo’yilmasligi kerak. Bugun atrofdagi insonlarning ko’plab qismi o’z bolaligida qolib ketgan insonlardir. Shu boisdan ham bugungi jamiyatda ruxshinoslarga ehtiyoj tobbora kuchayib bormoqda. Farzandlaringizga ko’proq e’tiborlik bo’ling.

#### REFERENCES:

1. <https://iiau.uz> > news “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot...masalasidir”.
2. Axmadjon Xolmurodov Abdumurod Tilavov “Bolangizni bilasizmi” 2023.
3. Axmedjanov E.R. Psixologiya testi. 1996.